



XORIJYIY MAMLAKATLARDA SOXTA TADBIRKORLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Ravshanov Surat Botir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga qarshi
kurashish va komplaens nazorati yo'nalishi magistri

ravshanovsurat03@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10043636>

ARTICLE INFO

Received: 18th Oktober 2023

Accepted: 25th Oktober 2023

Online: 26th Oktober 2023

KEY WORDS

*Xo'jalik, xorijiy, faoliyat, jinoiy,
javobgarlik, jazo, qonunchilik,
litsenziya, g'ayriqonuniy,
iqtisodiyot.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda soxta tadbirkorlik jinoyati uchun javobgarlik masalalari, soxta tadbirkorlik jinoyatining o'rganilishi haqida fikr bildirilgan.

Xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, ya'ni xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlarning jamiyat manfaatlariga moddiy zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmishlarga to'xtaladigan bo'lsak, ulardagi jazo tizimi normalarini bizning qonunchiligimizdagi jazo tizimi bilan, shuningdek, qanday qilmishlar jinoiy yoki boshqa javobgarlik bilan jazolanishiga ahamiyat beramiz.

Xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligiga ko'ra, soxta tadbirkorlik bilan shug'ullanganlik uchun asosan ikki turdagi qilmish bitta jinoyat sifatida baholanadi. Ular quyidagilar:

1. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish;
2. Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish.

Ko'plab mamlakatlar qonunchiligida ushbu qilmishlar bir jinoyat tarkibi sifatida ko'riladi. Masalan, Ozarbayjon Respublikasi jinoyat qonunchiligida ushbu qilmish bir jinoyat tarkibi sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 192-moddasi «Soxta tadbirkorlik» deb nomlangan. Unga ko'ra, jinoyatning obyektiv tomoni Ozarbayjon Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmasdan yoki maxsus ruxsatnoma (litsenziya) shart bo'lgan holatda maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olmasdan yoki litsenziya shartlarini qonunga xilof ravishda buzib tadbirkorlik bilan shug'ullanish va bu qilmish fuqarolarga, tashkilotlarga yoki davlatga katta miqdorda zarar yetkazishda namoyon bo'ladi¹

Agar Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ushbu qilmishlarni jinoyat sifatida baholanishini taqqoslasak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ushbu qilmishlarni ikkita jinoyat tarkibi sifatida qaraladi va bu bo'yicha o'z qonunchiligiga ikkita modda kiritgan. Ozarbayjon Respublikasi jinoyat

¹ Ugolovniy kodeks Azerbayjanskiy Respubliki. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2001. – S. 210.



qonunchiligida bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidan farqli o'laroq ushbu qilmishlarni bir jinoyat tarkibi sifatida o'z qonunchiligiga belgilagan.

Bular bilan bir qatorda Belorussiya Respublikasi Jinoyat kodeksida ushbu qilmishlar uchun javobgarlik masalalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqoridagi qilmishlar uchun javobgarlik Belorussiya Jinoyat kodeksining 233-moddasida keltirib o'tilgan. Qilmish 233-moddada "Soxta tadbirkorlik faoliyati" deb nomlangan. Belorussiya Respublikasi Jinoyat kodeksida davlat ro'yxatidan o'tmasdan yoki maxsus ruxsatnoma (litsenziya) shart bo'lganda maxsus ruxsatnoma (litsenziya)siz ancha miqdorda foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish jinoyat deb topilishi ko'rsatib o'tilgan².

Belorussiya Jinoyat Kodeksining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda savdo vositachilik emas, balki "tadbirkorlik faoliyati" deb atalgan. Bu esa, o'z navbatida, savdo yoki vositachilik faoliyati, balki butun tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga yordam berishini ko'rishimiz mumkin.

G'ayriqonuniy tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda Qirg'iziston Respublikasi jinoyat qonunchiligida ham o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Qilmish g'ayriqonuniy tadbirkorlik deb nomlanib, Qirg'iziston Jinoyat Kodeksining 180-moddasiga ko'ra, fuqarolarga, tashkilotlarga yoki davlatga ko'p miqdorda zarar yetkazib, yoxud ko'p miqdorda foyda olish uchun ro'yxatdan o'tmasdan yoki maxsus ruxsatnoma (litsenziya) shart bo'lgan faoliyatlarda maxsus litsenziya olmasdan yoxud litsenziya shartlarini buzib tadbirkorlik bilan shug'ullanish jinoyat deb qaraladi³.

Keyingi e'tibor qaratmoqchi bo'lgan davlatimiz bu Sharqiy Yevropaning Boltiqbo'yi mamlakatlari qatoriga kiruvchi Latviya davlatidir.

Yuqorida nazarda tutilgan qilmishlar uchun javobgarlik masalasi Latviya Jinoyat kodeksining 207-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, u quyidagicha nomlanadi: "Ro'yxatdan o'tmasdan yoki maxsus ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) tadbirkorlik faoliyati" deb nomlanadi. Ushbu modda dispozitsiyasiga ko'ra, ro'yxatdan o'tmasdan yoki qonun bilan maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olish belgilangan bo'lsa, tadbirkorlik qilsa yoxud faoliyatini to'xtatish to'g'risidagi farmoyishdan so'ng faoliyatini davom ettirish bir yil davomida takroran sodir etiladigan bo'lsa jinoyat deb topilishi ko'rsatilgan⁴.

Jinoyat kodeksi normasining dispozitsiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak faoliyatini to'xtatish to'g'risidagi farmoyishdan so'ng faoliyatini takroran davom ettirgan taqdirdagina, qilmish jinoyat hisoblanadi. Vaholanki, bizning qonunchiligimizda bunday holat nazarda tutilgan bo'lmasa ham shunday qilmishlar uchun yengillashtiruvchi holat sifatida ma'muriy huquqbuzarlik sifatida qaralib, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi masala hal etiladi. Bu qilmishning bizning qonunchilikka ko'ra jinoyat sifatida baholanish holati o'xshashdir, ya'ni yuqorida nazarda tutilgan harakatning bir yil davomida takroran sodir etishi jinoyat hisoblanadi. Jazo turlaridan biri sifatida qaraladigan muayyan huquqdan mahrum qilishning muddati ham normaning o'zida aniq belgilab qo'yilgan, shuningdek, aynan qaysi harakatlarning taqiqlanishi boshqa moddaga havola qilinadi.

² Ugolovniy kodeks Respubliki Belarus'. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2001. – S. 284.

³ Ugolovniy kodeks Respubliki Kirgizii. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press 2002. – S. 189-190.

⁴ Ugolovniy kodeks Latviyskoy Respubliki. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2001. – S. 208-209.



Qonunga xilof tadbirkorlik jinoyatlari uchun javobgarlik Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 241-moddasida ham ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra qonunga xilof tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat sifatida baholanishi ko'rsatilgan⁵

Bu qilmishlar uchun javobgarlik belgilashda Gruziya Respublikasi jinoyat qonunchiligida ham o'ziga xos jihatlari mavjud. Qilmish uchun Gruziya Jinoyat kodeksining 192-moddasida javobgarlik masalasi belgilangan. Qilmish obyektiv tomondan ancha miqdorda zarar yetkazib yoki ko'p miqdorda foyda olish uchun ro'yxatdan o'tmasdan yoxud maxsus ruxsatnomasiz (litsenziya) yoki maxsus ruxsatnoma shartlarini buzib, tadbirkorlik bilan shug'ullanish bilan sodir etiladi⁶.

Gruziya Jinoyat kodeksining o'ziga xosligi shundan iboratki, jinoyatning obyektiv tomoniga litsenziya shartlarini buzish harakati ham kiradi. Bizning qonunchilik nuqtai nazaridan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib baholasak, qilmish ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tarkibiga kiradi. Gruziya Jinoyat kodeksining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, moddaning (JK 192-moddasi) birinchi qismining o'zidayoq ko'p miqdorda foyda olish nazarda tutilgan. Respublikamiz Jinoyat kodeksida ko'p miqdor va juda ko'p miqdor uchun faqatgina 188-modda 2-qismi "b" va 3-qismi "a" bandlarida nazarda tutilgan.

Qo'shni davlatlar jinoyat qonunchiligiga ham e'tibor qaratib o'tadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo davlatlaridan xususan, Tojikiston va Qozog'iston hamda Rossiya, Ukraina, Bolgariya va Estoniya davlatlarining jinoyat qonunchiligi ham muhim ahamiyatga ega.

Xususan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksini o'rganib tahlil qiladigan bo'lsak, qilmish jinoyat sifatida Qozog'iston Jinoyat kodeksining 190-moddasida "Soxta tadbirkorlik" deb nomlangan⁷. Qozog'iston jinoyat qonunchiligining o'ziga xos xususiyati shuki, aksizsiz tovarlarni ishlab chiqarganlik, saqlaganlik va nazorat qilinmaydigan daromad topish maqsadida sotganlik kabi g'ayriqonuniy harakatlar ham uning obyektiv tomonini tashkil etadi. Biz bunday me'yorlarning belgilanganligini boshqa davlatlar qonunchiligida uchratmaymiz. Jazo tizimida esa uning yangi ko'rinishi ko'zga tashlanadi, ya'ni jazoga mahkum etilgan shaxslarning ish haqidani yoki boshqa daromadlaridan olib qo'yish turi ko'zda tutilgan.

Ukraina jinoyat qonunchiligida ham bunday qilmishlarning sodir etilganligi uchun javobgarlik belgilashda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ukraina jinoyat qonunchiligida yuqoridagi qilmishlar uchun ikkita moddada me'yorlar keltirilgan bo'lib, xo'jalik va bank faoliyati bilan shug'ullanish tartibini buzish (202 modda) hamda maxsus taqiqlangan faoliyat bilan shug'ullanganlik (203 modda) uchun javobgarlik ko'rsatilgan

Jahon mamlakatlari jinoyat qonunchiliklarini tahlil qilishda davom etar ekanmiz, Estoniya jinoyat qonunchiligi o'zining yuqorida ko'rsatib o'tilgan davlatlar qonunchiligiga o'xshamaslik jihatlari bilan o'zini tortdi. Qilmish Estoniya Jinoyat kodeksining 148-moddasida «Soxta tadbirkorlik» deb nomlanadi⁸.

⁵ Ugolovniy kodeks Respubliki Moldova. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2003. – S. 150.

⁶ Ugolovniy kodeks Gruzii. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2002. – S. 227-228.

⁷ Ugolovniy kodeks Kazaxstana. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2001. – S. 87.

⁸ Ugolovniy kodeks Estonskiy Respubliki. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2001. – S. 142.



Estoniya Jinoyat kodeksining bizning jinoyat qonunimiz bilan o'xshash jihatlari shundan iboratki, qilmish dastlabki marta sodir etilganda yengillashtiruvchi holat sifatida ma'muriy javobgarlik qo'llanilgan. Farqli tomoni esa savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish emas balki, maxsus taqiq belgilangan ishlab chiqarish yoki maishiy xizmat ko'rsatish alohida jinoyat sifatida belgilangan.

Soxta tadbirkorlik uchun muayyan faoliyatni cheklashning va unga jazo belgilashning umumiy qonunchilik tizimi jihatidan bizga yaqin bo'lgan Rossiya Federatsiyasining bu boradagi qonunchiligida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat Rossiya jinoyat kodeksining 171-moddasida me'yorlar bilan belgilangan bo'lib, qilmishga jinoyat sifatida qaralishi o'zining muhim e'tiborli jihatlari bilan boshqa jinoyat qonunchilik tizimlaridan farqlanib turadi. Jinoyatning obyektiv tomoni ko'p miqdorda daromad olish maqsadida yoki ko'p miqdorda fuqarolarga, tashkilotlarga yoki davlatga zarar yetkazish bo'lib, ro'yxatdan o'tmasdan yoki yolg'on ma'lumotlar berib ro'yxatdan o'tishning tartibini buzib yoxud maxsus ruxsatnomasiz yoki lisenziya shartlarini buzib tadbirkorlik bilan shug'ullanish hisoblanadi⁹.

Demak, yuqoridagi holatlardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligidagi ushbu jinoyatlarni taqqoslab shartli ravishda davlatlarni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Davlat ro'yxatidan o'tmasdan turib tadbirkorlik qilish va maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olmasdan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish ikki jinoyat tarkibi sifatida bog'lovchi davlatlar (O'zbekiston).

2. Davlat ro'yxatidan o'tmasdan turib tadbirkorlik qilish va maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olmasdan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish Jinoyat kodeksida bir jinoyat qilmish, ya'ni "soxta tadbirkorlik" deb belgilangan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Belorusiya, Qirg'iziston, Latviya, Moldova, Gruziya, Qozog'iston, Estoniya). Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib shunday fikrga kelishimiz mumkin, har qaysi davlatda yuqoridagi qilmishlar uchun turli xildagi jazo turlari belgilangan bo'lsada, obyektiv jihatdan bir-biriga yaqin va o'xshashdir. Shuningdek, umumiy jihatdan barcha davlatlar jinoyatni jinoyat qonunchiligida «G'ayriqonuniy tadbirkorlik» deb nomlaydi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida yuqoridagi qilmishlarni ikkita jinoyat tarkibi sifatida ko'rsatilganini ko'ramiz. Bizning fikrimizcha, xorijiy mamlakatlar qonunchiligini o'rgangan holda savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish va faoliyat bilan lisenziyasiz shug'ullanish jinoyatlarini yagona "Soxta tadbirkorlik" deb nomlanishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

References:

1. Ugolovniy kodeks Azerbayjanskiy Respubliki. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2001
2. Ugolovniy kodeks Respubliki Belarus'. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2001.
3. Ugolovniy kodeks Respubliki Kirgizii. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press 2002.
4. Ugolovniy kodeks Latviyskoy Respubliki. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2001.
5. Ugolovniy kodeks Respubliki Moldova. – SPb.: Yuridicheskiy sentr Press, 2003.

⁹ Ugolovniy kodeks Rossiyskoy Federasii. – M.: Yurayt-M, 2002. – S. 81.



6. S.S.Niyozova. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 3, (2020), p. 3962.
7. S.S.Niyozova. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. International Journal of Pharmaceutical Research | Dec 2020 | Vol 12 | Supplementary Issue 3 p. 528.